



Xurshida KOMILOVA,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institut doktoranti, (PhD), dotsent
E-mail:ilm.hurshida@gmail.com

ADU tarix fanlari doktori, prof. O. Komilov taqrizi asosida

PARTICIPATION OF UZBEKISTAN WOMEN IN SCIENCE AND EDUCATION REFORMS

Annotation

The article focuses on the work being carried out in a number of directions in order to expand the participation of women in the improvement of the fields of science in our Republic, to support them in their scientific activities, and to increase the respect for women intellectuals and scientists who are engaged in scientific and creative activities. It is given. The leadership of women and girls, participation in political and social processes, and wide involvement in scientific activities are highlighted. The content of the state policy and strategic development of science development in Uzbekistan is covered. The participation of women in the development of science, the analysis of problems in the field is given. Information is given about the peculiarities of directing women to scientific activities.

Key words: Scientific activity, science, doctoral study, scientific potential, women, incentive, innovative activity, project, research, fields.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В РЕФОРМАХ, НАПРАВЛЕННЫХ НА НАУКУ И ПРОСВЕЩЕНИЕ

Аннотация

В статье акцентируется внимание на работе, проводимой по ряду направлений в целях расширения участия женщин в совершенствовании областей науки в нашей республике, поддержки их в научной деятельности, повышения уважения к женщинам-интеллигентам и ученых, занимающихся научной и творческой деятельностью. Подчеркивается лидерство женщин и девушек, участие в политических и социальных процессах, широкая вовлеченность в научную деятельность. Освещено содержание государственной политики и стратегического развития развития науки в Узбекистане. Дано участие женщин в развитии науки, анализ проблем в этой области. Дана информация об особенностях направления женщин на научную деятельность.

Ключевые слова: Научная деятельность, наука, докторантура, научный потенциал, женщины, стимул, инновационная деятельность, проект, исследования, направления.

O‘ZBEKISTONLIK XOTIN-QIZLARNING ILM, MA’RIFATGA YO‘G‘RILGAN ISLOHOTLARDI ISHTIROKI

Аннотация

Maqolada respublikamizda ilm-fan sohalarini takomillashtirishda xotin-qizlarning faolligini kengaytirish, ularni ilmiy faoliyatda qo‘llab-quvvatlash, ziyoli ayollarga hurmat-ehromni oshirish maqsadida bir qator yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olimlar. Xotin-qizlar yetakchiligi, siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi alohida ta’kidlangan. O‘zbekistonda davlat siyosati va ilm-fanni strategik rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Xotin-qizlarning ilm-fan rivojidadagi ishtiroki, bu boradagi muammolar tahlili berilgan. Ayollarni ilmiy faoliyatga yo‘natishning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy faoliyat, ilm-fan, doktorantura, ilmiy salohiyat, xotin-qizlar, rag‘bat, innovatsion faoliyat, loyiha, tadqiqot, sohalar.

Kirish. O‘zbekistonda oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni hamda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi qator maqsadli ishlarni amalga oshirib kelmoqda, qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri: xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish [1];

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son Qarorining 3-bandida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalaridan biri sifatida xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish belgilangan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ham ilm-fan taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqish masalasi tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi va mavqei yuksaltirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, T. Narbayeva O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli haqida [6], M.G‘offorova [7] O‘zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o‘zgarishlar tendensiyasi,

O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari S.Ahrorova [8] kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda ilm-fan sohalarini takomillashtirishda xotin-qizlar ulushin kengaytirish, ularni imiy faoliyat olib borishlarini qo'llab quvvatlash, ilmiy va ijodkor faoliyatni olib borayotgan ziyoli-olima xotin-qizlarga hurmat-e'tiborni oshirish maqsadida qator yo'nalishlarda ishlar davom etmoqda. Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish — bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o'zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman dedi o'z nutqida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev [11].

Yurtimiz taraqqiyoti uchun tashabbuskor va yangi g'oyalari, yangi loyihalar bilan faol ishtirok etishga qodir, intellektual-ilmiy salohiyati yuksak olim kadrlarini tayyorlash doirsida 2017 yilda tayanch doktorantura 456 ta, doktorantura 48 ta 20022 yilda tayanch doktorantura 3032 ta, doktorantura 273 ta, stajyor-tadqiqotchilik 500 ta, maqsadli doktorantura 295 ta [9] davlat byudjetidan doktorantura kovotalari ajratilgani yildan yilga kovotalar soni ko'paytirilayotganidan dalolat bermoqda.

Ilm-fan sohalarini chuqur o'rganish maqsadida xalqaro miqyosidagi o'quv adabiyatlar, axborot resurslardan keng foydalanish imkoniyatlari ko'paytirish hamda ilmiy faoliyatiga ko'maklashishga doir yangi avlodini yaratish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarini takomillashtirish dardkor. Shuningdek, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish [3] belgilandi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ilm-fan sohalarida xotin-qizlardan 700 nafarga yaqini fan doktorlari, 6 nafar akademik, 15 nafar O'zbekiston Qahramoni mehnat qilmoqda. Umuman, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, san'at va madaniyat sohalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ulushi 72 foizni tashkil etmoqda [5]. Zamonaviy xotin-qizlar o'z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo'lish bilan bir qatorda, ilm-fan sohalarida ilmiy izlanishlar olib borib jamiyatimiz taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan ayollarimiz soni ko'payib bormoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatda o'rni dunyo miqyosida o'zgarib bormoqda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy yangicha imiji shakllanmoqda. Bu esa asta sekin xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda, davlat hamda jamiyatni boshqarishda ijtimoiy to'siqlarni yengib, erkaklar bilan teng, faoliyat olib borishlariga turtki bo'lmoqda. Yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan xotin-qizlarning ulushi tibbiyotda 77 foizni, ta'lim sohasida 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda. Agar 2017 yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan 37 foizga yetdi [13].

Mavjud ilmiy tashkilotlarda, OTM foyliyat yuritayotgan malakali xotin-qizlar ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun jahonning nufuzli ta'lim va ilmiy muassasalarida malaka oshirish va stajirovka o'tashga jalb etilmoqda. Jumladan, 2018-223 yillarda mutaxassislarni xorijda tayyorlash vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jang'armasi stipendiatlarining xorijiy ta'lim dasturlari kesimida 2018 yilda 378 ta, 2019 yilda 600 ta, 2020 yilda 15 ta, 2021 yilda 313 ta, 2022 yilda 320 ta, 2023 yilda 155 tani tashkil etdi [10].

Mamlakat ilm-fan sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Bunda mamlakatning

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish maqsadida, ilm-fanga oid loyihalar tanlovlar asosida moliyalashtirilmoqda. 2019-2023 yillar mobaynida yer to'g'risidagi fanlar - 53, Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiyalarni rivojlantirish fanlari - 61, matematika va fizika fanlari - 72, filologiya va ijtimoiy fanlar -79, kimyo texnologiyalari fanlari -83, biotexnologiya va biologiya fanlari – 84, texnika fanlari – 117, tibbiyot 118, qishloq xo'jaligi - 218 va boshqa 181 ta fan yo'nalishlari kesimida innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalari tanlovlari asosida moliyalashtirilgan [9]. 2023 yil 1 -yarim yilligida 54 ta amaliy, 22 ta innovatsion, 14 ta xalqaro, 10 ta fundamental ilmiy loyihalar moliyalashtirildi [9].

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalardan biri xotin-qizlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarni kengaytirish, intellektual salohiyatga ega mutahassis kadrlar tayyorlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning bandligini taminlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy-siyosiy sohalarida hayotida xotin-qizlarning ishtirokini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi jamiyatning madaniyatlik darajasini belgilab beradi. Bu borada bugungi kunda xotin-qizlarning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini ortishiga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarining kuchayib borayotgan bo'lsa ikkinchi tarafdin, yangi O'zbekiston taraqqiyotida barcha sohalarida xotin-qizlarning mavqei tobora yuksalayotganligi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va ta'lim sohasida yuqori malakali kadrlarning bilim va tajribalarini amalda qo'llashni moliyaviy rag'batlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrda 1030-son qaroriga asosan ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi [4] joriy etildi. Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliy mukofot – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. Xotin-qizlarimiz orasida 5 nafar akademik, oliy ta'lim muassasalarining o'zida 700 nafardan ziyod fan doktori, qariyb 3 ming nafar fan nomzodi, shuningdek, "O'zbekiston xalq shoiri", "Xalq artisti", "Xalq o'qituvchisi" va boshqa faxriy unvonlarga sazovor bo'lgan ko'plab ayollarimiz bor [11]. Ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini inobatga olgan holda xotin-qizlarning ilmiy faoliyati ko'lamini kengaytirish, muassasalarda foyliyat yuritayotgan malakali xotin-qizlar, professor-o'qituvchilar va ilm-fan sohalarini vakillarini jamiyatimizdagi mavqeni oshirish, mashaqqatli mehnatini rag'batlantirib borilmoqda. Albatta, xotin-qizlar ilmiy ilm-fan sohalaridagi faolligi individual xarakterga ega bo'lib, xususan, intellektual, tashabbuskor, ongli va teran fikrlay olishi, ma'naviyati-axloqliligi kabi qator fazilatlarini bilan bog'liq ravishda rivojlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xotin-qizlar ta'lim, ilm-fan sohalarida muvaffaqiyatga erishuvda hamda kamolotida erkaklarning o'rni juda salmoqli. Chunki eri qo'llasagina, ayol o'z maqsadiga erkin erisha oladi, er qo'llasa jamiyatda o'z o'rnini topadi, er tushunagina oilada o'zaro ishonch, sadoqat va hurmat bo'ladi, erining madadini his qilsagina ayol chinakam baxtli bo'ladi.

Olim ayollar ishdan qaytib, charchoqni ham sezmasdan ovqat pishirishi, kir yuvishi, bolalariga qarashi, mehmon kutishi, mehmonga borishi, turmush o'rtog'iga

e'tibor berishi va bu ishlarni kundalik yumush sifatida bajarishi mumkin.

Fuqorolik jamiyatining negizi bu jamiyat a'zolarini madaniyatligi, huquqini bilishi bilan birga qonunlarni hurmat qilishi xotin-qizlar xam jamiyatning a'zosi sifatida teng imkoniyatlardan foydalanib, doimo ijtimoiy-siyosiy faollik, innovatsion yangiliklardan xabardor, bilimini oshirib borishi lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatda munosib o'rinni egallashi, mustaqil salohiyatlarini namoyon etishlari va

ma'naviy-marifiy, ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarda ishtirokini ta'minlash maqsadida davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratildi. Xotin-qizlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ularning ilmiy salohiyatlarini yuksaltirish – nafaqat oilalarning mustahkamligi, balki jamiyatimiz taraqqiyoti uchun fidoyilarcha mehnat qilishlari demokratik jamiyat rivojida ayollar ishtirokining ko'payishiga ko'maklashishi muqarrar.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5020-son Qarori. <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni 6-b. <https://lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrda 1030-son "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risidagi Qarori. <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi, Xalq so'zi, 2022 yil 8 mart №50(8112)-B.1.2.
6. Narbayeva T.K. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli. Sots. fan.bo'ycha fan. dokt... diss. avtoref. –Toshkent: 2020. –72 b.
7. G'offorova M.Q. O'zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar tendensiyasi: sotsiologiya fanlari doktori...diss. avtoref.-Toshkent, 2021.B-65.
8. Ahrorova S.A. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz...diss. avtoref.-Toshkent, 2005
9. <https://innovation.gov.uz>
10. <https://eyuf.uz/>
11. <https://president.uz/uz/lists/view/6013>
12. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/07/womens/>
13. <https://senat.uz>